

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining media vositalaridan foydalanishining holati ularning qiziqishi, ehtiyojidan kelib chiqqan holda belgilanadi deb aytish, ayni haqiqat. Quyida talabalarining media vositalaridan foydalanishidagi mavjud holatni keltirish mumkin:

I. E-Learning platformalari. Deyarli barcha oliy ta'lim muassasalari talabalarining E-Learning-Platformalaridan foydalanishi uchun qulay imkoniyatlar taqdim etadi. Bularning ichida eng ommalashganlari qatoriga Moodle yoki Blackboard kabi platformalarni keltirib o'tish mumkin. Mazkur platformalar orqali talabalar turli o'quv kurslari, forumlarda ishtirok etishi, onlayn rejimda topshiriqlar bajarishi, yuklab olishi, shuningdek turli o'quv materiallaridan foydalanishi mumkin bo'ladi.

II. Onlayn-tadqiqot imkoniyatlari. Talabalar internet tarmog'i orqali o'quv loyihalari, topshiriqlar yoki uy vazifalari uchun ma'lumotlar qidirishadi. Keng ommalashgan onlayn-tadqiqot imkoniyatlari sifatida Google qidiruv xizmati, ilmiy ma'lumotlar bazasi sanalgan JSTOR yoki PubMed kabilarni keltirish mumkin.

III. Ijtimoiy tarmoqlar. Talabalar orasida eng ommalashgan media vositalar sarasiga ijtimoiy tarmoqlar kiradi. Ulardan eng mashhurlari Telegram, Facebook, Whatsapp, Twitter yoki Instagram. Bular orqali talabalar o'z o'qish faoliyati yoki shaxsiy qiziqishlari asosida boshqa talabalar bilan aloqa qilishadi.

IV. Elektron kitoblar va jurnallar. Talabalar orasida kutubxonaga bormasdan elektron kitoblar va jurnallardan foydalanish ham qulay, ham intensivlashib bormoqda. Hozirgi kunda eng so'nggi ilmiy tadqiqot natijalari asosan elektron kitoblar va jurnallar ko'rinishida keng ommaga taqdim etilmoqda.

V. Videokonferentsiyalar. Masofaviy ta'limning mazmun va mohiyati ortib borishi natijasida virtual o'quv xonalari vujudga kelmoqda. Virtual o'quv xonalarida asosan videokonferentsiyalar asosida o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Videokonferentsiya onlayn rejimdagi ma'ruza hamda seminarlarni

tashkil etishning asosini tashkil etadi.

VI. Turli mobil ilovalar (App). Talabalarning o'quv faoliyatida qulaylik keltiruvchi bir qator mobil ilovalar mavjud. Jumaladan, ularning muhim sanalar, uchrashuvlarini tashkil etishga qaratilgan mobil ilova, mindmap tashkil etish uchun ilova, xorijiy tillarda yangi so'zlarni o'rganish uchun ishlab chiqilgan ilovalarni kelirib o'tish mumkin.